KOLLABORATIV O‘QITISHNING DIFFERENSIAL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich
Nizomiy nomidagi O‘zMPU prifessori, filologiya fanlari doktori (DSc)
Jarilkapova Ayjan Jasarbek qizi
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada differensial ta’limni amalga oshirishda hamkorlikda o‘qitishning o‘ziga xos o‘rni hamda hamkorlikda o‘qitishning asosiy maqsadi – talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijtimoiy tajribalarni rivojlantirish ekanligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion jarayon, differensial ta’lim, o‘quv materiali, optimallashtirish, hamkorlikda o‘qitish, fikr almashish, bilim, o‘nikma, pedagogik imkoniyat.

Dunyoda hamda mamlakatimizda ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy kuch sifatida e’tirof etilib, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etish, pedagogik diagnostika metodlaridan optimal foydalanish strategiyalari samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish orqali tahsil oluvchilar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish aloxida dolzarblik kasb etmoqda.

Differensial ta’lim o‘quv jarayoni tashkiliy shakllaridan biri bo‘lib, bunday ta’lim jarayonida o‘quvchilar ma’lum bir xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi va shunga ko‘ra o‘quv jarayoni tashkil etiladi. Differensiatsiya lotin tilidan olingan bo‘lib, “differentia”– farq, tabaqa ma’nolarini anglatadi [3; 110].

Differensiallashgan ta’limning asosiy belgilaridan biri bu o‘quvchilarning turli xususiyatlariga ko‘ra hamkorlikda o‘qitishga hamda o‘quv materialini taqdim etishda har bir guruhning ushbu jihatlarini inobatga olgan holda moslashtirish, to‘ldirish yoki optimallashtirishdan iboratdir.

Differensial ta’limni amalga oshirishda yana bir mexanizm – hamkorlikda (kollaborativ) o‘qitishning o‘ziga xos o‘rni bor. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar tom ma’nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina

o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi guruh(komanda)ga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga harakat qiladi. Hamkorlik pedagogikasida esa, o‘quvchi o‘z o‘quv faoliyatining subyekti sifatida qaraladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo‘ladi. Ular o‘zaro hamkor, hamdo‘st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo‘ladilar. Hamkorlik munosabatlari o‘qituvchilar orasida, ma’muriyat bilan o‘quvchilar va o‘qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o‘rnatiladi [2; 964–965].

Mazkur mexanizm talabalarning birgalikda ishlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu usulda talabalar bir-birining kuchli tomonlaridan foydalanib, birgalikda ona tili fani yuzasidan beriladigan turli xarakter va murakkablikdagi topshiriqlarni bajarishga muvaffaq bo‘lishadi. Hamkorlikka asoslangan differensial ta’limda talabalarning ijtimoiy mahoratlari, birgalikda ishlash qobiliyati va muloqot qobiliyati rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qitish differensial ta’lim jarayonida talabalarning o‘zaro hamkorlik va birgalikda ishlash orqali bilim olishlarini rag‘batlantiradi, ular o‘zaro bilimi, tajribasi va fikrlaridan o‘rnatiladigan muloqot va muhokamalar orqali yangi ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy maqsadi – talabalarning mustaqil fikrlash, muam-molarni hal qilish va ijtimoiy tajribalarni rivojlantirishdir.

Hamkorlik pedagogikasi turli mamlakatlarda ilg‘or pedagoglar ishtirokidarivojland i. Ma’lumki, ta’lim sifatini boshqarish – ta’lim jarayoni sifatini loyihalash-tirish, unga erishish va qo‘llab-quvvatlash hamda uni amalga oshirishni, natijalarini ta’minlashdan iboratdir. Bunda ta’lim sifatini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi – turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta’limga joriy etishda o‘z ifodasini topadi [1]. Ma’lumki, hozirgi davrda yoshlarning kasbiga oid bilimlarini hayotda qullay olishlari uchun keng imkoniyat yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifa ta’lim sifatini yuksak darajada ko‘tarishni, puxta va bilimli raqobatbardosh mutaxassis tayyor-lashni, boshqacha qilib aytganda, ta’lim va tarbiya tizimida tub sifat o‘zgarish-larini sodir etishni talab qiladi. Demak, hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil qilingan ta’lim va tarbiya o‘quvchi shaxsining “Men”ini yorqinroq namoyish etishga, qobiliyat va iqtidorini anglashga, uni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijodkorlikka intilish, yangilik yaratish – hamkorlik pedagogikasining kreativlik belgisi bilan chambarchasdir. Ushbu hamkorlik asosida bunyodkorlikka intilish, fikrlar parvoziga keng yo‘l ochadi [5].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qazibekov M. Ta’lim jarayonida hamkorlikda o‘qitish texnalogiyasining o‘rni. Ilmiy ommaviy maqolalar. 2023.
2. Rasulova D.Z. Organization of educational process based on cooperation technology . Scientific progress. Volume 2 | Issue 6 | 2021 . – P. 964–965
3. Shodmonova S.M. Differensial ta’lim mazmuni va uning pedagogik imkoniyatlari. Science Chine International Scientific journal. Issue 12, Volume 1. April 25, 2024. –B.110.
4. https://dzen.ru/a/Y0_7dPi70mWDf6tn
5. https://jdpu.uz/talim-jarayonida-hamkorlikda-%D0% BErni/